

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING
JIZZAX FILIALI**



**RAQAMLI JAMIYATDA FAN VA TA’LIMNING INTEGRATSIYALALASHUVI:
MATEMATIKA, IQTISOD, PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYANING YANGI
YONDASHUVLARI**
mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2026-yil 20-21-aprel)

JIZZAX-2026

Raqamli jamiyatda fan va ta’limning integratsiyalalashuvi: matematika, iqtisod, pedagogika va psixologiyaning yangi yondashuvlari. Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to’plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali Amaliy matematika kafedrası, 2026-yil 20-21-aprel 505-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo’yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarini qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to’plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo’nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o’qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Tovboyev, t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O’ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo’rayev M.M.

Mazkur to’plamga kiritilgan ma’ruza tezislarning mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to’g’riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o’zlari mas’uldirlar.

Adabiyotlar:

1. Seytov Sh. Qashqin. Kóp edi ketken tırnalar. –Nókis: Jeti Íqlım, 2021.
2. Axmetov S. Esenov J. Jarımbetov Q. Ádebiyattanıw atamalarınń orıssha-qaraqalpaqsha túsındırme sózligi. - Nókis: Bilim, 1994.

URUSH YILLARIDAGI AYOLLAR OBRAZI: BADIY TALQIN, GENDER ROLI VA MA’NAVIY ZIDDIYATLAR

(“Alvido, qurol!” va “Buyuk Getsbi” romanlari misolida)

Qodirova Muhabbat

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ernest Hemingueyning “Alvido, qurol!” va Frensis Skott Fitzgeraldning “Buyuk Getsbi” romanlarida urush yillaridagi ayollar obrazining badiiy talqini o’rganiladi. Tadqiqotda feministik adabiy tanqid, gender nazariyasi va psixoanalitik yondashuv asosida ikkala romandagi ayol qahramonlarning ijtimoiy mavqei, ichki ziddiyatlari va ma’naviy yo’qotishlari tahlil etiladi. Maqolada Katrin Barkli va Deyzi Buchanan obrazlari orqali urush davri ayollariga xos gender rollarining qanday shakllanishi, bu rollar qahramonlar ruhiyatida qanday izlar qoldirganligi va muallif badiiy niyatiga muvofiq ayol timsolining qanday vazifalar bajarishi ko’rsatiladi.

Kalit so’zlar: ayol obrazi, gender roli, ma’naviy ziddiyat, feministik tanqid, urush adabiyoti, “Yo’qotilgan avlod”, Heminguey, Fitzgerald.

Kirish. Birinchi jahon urushi (1914–1918) nafaqat geosiyosiy xaritani o’zgartirdi, balki u ayollar hayotidagi stereotiplarni ham larzaga keltirdi. Millionlab ayollar an’anaviy uy chegarasidan chiqib, turli sohalarda davrning ehtiyojiga qarab ishlay boshlashdi. Bundan tashqari, ijtimoiy tashkilotchilik va xayriya ishlarida faol qatnashdi. Bu o’zgarishlar nafaqat iqtisodiy, balki chuqur ma’naviy va psixologik ahamiyat kasb etdi, ya’ni ayollar o’z qadr-qimmatini, imkoniyatlari va jamiyatdagi o’rni haqidagi tasavvurlarini qayta ko’rib chiqdi.

“Yo’qotilgan avlod” adabiyoti bu o’zgarishlarni o’ziga xos badiiy tasvir bilan aks ettirdi. Ernest Heminguey va Frensis Skott Fitzgeraldlar bu avlodning eng yorqin vakillari bo’lib, ular ayol qahramonlarni o’z romanlarining markaziga qo’yilar va ular orqali urush davri insoniyatining ma’naviy ahvolini, gender munosabatlarining yangi qiyofasini va qadriyatlar inqirozini ifodalashga harakat qildilar. Biroq ikkala muallif bu masalaga turlicha yondashdi. Heminguey ayol timsolini mavjudiy fojia va fidoyilik ramzi sifatida ko’rsatsa, Fitzgerald uni ijtimoiy tanqidning keskin vositasiga aylantirdi.

Ushbu tadqiqot uchta bir-birini to’ldiruvchi nazariy tizimga asoslanadi. Birinchisi, Simon de Bovuarining ayollikni biologik emas, balki madaniy mahsulot sifatida talqin qiluvchi kontsepsiyasidir [6; p. 800]. Bu yondashuv shuni ko’rsatadiki, ayollarga nisbat beriladigan passivlik, fidoyilik, go’zallik kabi xususiyatlar tabiiy mohiyatning emas, balki mafkuraviy qurilmaning mahsulotidir.

Ikkinchi nazariy asos - Judith Batlarning gender performativligi modelidir [3; p. 17]. Batler fikricha, gender bu asl yoki haqiqiy shakl emas, balki takroriy harakatlar orqali shakllanadigan tuzilma. Bu tizim Deyzining ijtimoiy rollarni o’ynash tarzini va Katrinning o’z identifikatsiyasini sevgiga yo’naltirish mexanizmini tahlil qilish uchun samarali hisoblanadi.

Uchinchi nazariy asos esa Ketı Karutning ruhiy jarohat (tavma) nazariyasidir [5; p. 154]. Karutga ko’ra, urush tajribasi to’liq so’zlanishi yoki ongli ravishda qayta ishlanishi qiyin bo’lgan

psixologik izlar qoldiradi. Bu nazariya ikkala romandagi ayol qahramonlarning hissiy holati va xatti-harakatlarini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ernest Hemingueyning “Alvido, qurol!” romanidagi Katrin Barkli obrazi adabiy tanqidda doimo munozarali bo‘lib kelgan. Italiya frontida xizmat qiluvchi ingliz hamshirasi sifatida Katrin allaqachon yo‘qotishlarni boshdan kechirgan timsol sifatida sahnaga chiqadi: uning kuyovi urushda halok bo‘lgan va bu yo‘qotish uning butun ruhiyatida chuqur iz qoldirgan [11; p. 18]. Frederik Genri bilan munosabati boshidanoq o‘tkinchilik va yo‘q bo‘lib ketish xavfi soyasida tez va shiddatli tarzda rivojlanadi.

Feminist tanqidchilar Katrin obrazini Amerika adabiy kanonidagi ayollikning eng muammoli tasvirlaridan biri sifatida baholadilar [4; p. 215]. Uning mashhur iqrori “men uning xohlagan narsasiga aylanaman, sevgimdan boshqa hech narsam yo‘q” - ko‘pincha passiv taslimiyat va o‘zini yo‘qotish belgisi sifatida talqin qilinadi. Bu esa asarni o‘qish chog‘ida ma’lum darajada asosli ekanligini bildiradi. Chunki, Katrin deyarli butunlay sevgilisi orqali mavjud bo‘ladi, o‘z individualligini sevgiga to‘liq eritadi va mustaqil istaklar bildirmaydi.

Biroq Katrin obrazini faqat ojizlik ramzi sifatida ko‘rish uning murakkabligini e’tibordan chetda qoldiradi. Uning o‘zini fido qilishini passiv taslimiyat emas, balki ongli falsafiy tanlov sifatida ham tushunish mumkin: urush barcha ma’no va qadriyatlarni vayron qilgan dunyoda sevgi va insoniy yaqinlikni yagona haqiqiy tayanch sifatida tanlaydi va Katrin buni to‘liq anglab, shu yo‘lni ixtiyoriy ravishda tanlaydi. Shu nuqtai nazardan, Katrinning hamma narsaning o‘tkinchi ekanligini bila turib, sevgiga butun vujudi bilan ishonish sadoqati zaiflik emas, balki o‘ziga xos jasoratdir.

Psixanalitik jihatdan, Katrin o‘lim instinkting murakkab timsolidir [9; p. 64]. Uning mutlaq sevgisi va o‘layotgan tanasi bir-biridan ajralmasdir. Tug‘ish chog‘idagi fojiaiy o‘limi roman bir vaqtning o‘zida ulug‘laydigan va barbod qiladigan fidoyilik timsoliga aylantirar ekan, Heminguey ayollik qahramonligini tasdiqlash bilan uni yo‘q qilish o‘rtasida ataylab o‘quvchini ikki o‘t orasida qoldiradi. Katrin urush dunyosida eng qimmatli narsalar doimo yo‘q bo‘lib ketishga mahkum degan romanning asosiy g‘oyasini o‘z tanasi va taqdiri orqali isbotlaydi.

Gender roli nuqtai nazaridan, Katrin o‘z davri uchun paradoks obrazdir. U bir tomondan hamshira, ya’ni odatiy ayollik vazifasini bajaruvchi; ikkinchi tomondan, harbiy front sharoitida erkaklar dunyosida mustaqil faoliyat yurituvchi professional kab egasi sifatida aks ettirilgan. Biroq roman uning professional tomoniga deyarli e’tibor bermaydi: u asosan sevgilisi bilan munosabati orqali ko‘rsatiladi. Bu Hemingueyning ayollik tasavvuridagi mafkuraviy cheklovni : ayol eng avvalo munosabat va his-tuyg‘ular orqali mavjud degan g‘oyani aks ettiradi.

Frensis Skott Fitzgeraldning Buyuk Getsbi romanidagi ayol obrazlari tubdan boshqacha mafkuraviy vazifani bajaradi. Fitzgerald ayol qahramonlarini ijtimoiy tanqid vositasi sifatida ishlatadi: ular 1920-yillar Amerika jamiyatining axloqiy inqirozini, qadriyatlar bo‘shlig‘ini va urushdan keyingi ma’naviy tanazzulni gavdalantiradi.

Deyzi Buchanan - romanning markaziy ayol obrazi, ko‘pincha yuzaki, hissiy beqaror va axloqsiz ayol sifatida talqin qilinadi. Biroq bu talqin uni qurshab turgan ijtimoiy kontekstni e’tibordan chetda qoldiradi. Deyzi shunchaki passiv qahramon emas: u ongli ravishda Tomga turmushga chiqish, Getsbi bilan munosabatga kirish, baxtsiz hodisa joyini tark etish kabi tanlovlar qilgan. Ijtimoiy muhit uning imkoniyatlarini qattiq cheklab qo‘ygan bo‘lsa ham, u bu tanlovlar uchun axloqiy mas’uliyatdan qochib qutula olmaydi [8; p. 132].

Fitzgeraldning yutug‘i shundaki, u Deyzini bir vaqtning o‘zida ham jabrdiyda, ham aybdor sifatida tasvirlaydi. Deyzi patriarxal tizim tomonidan yaratilgan va u boylik va ijtimoiy mavqe doirasida tanlash imkoniga ega, biroq bu doiradan chiqish imkoni yo‘q degan tushuncha asosida tasvirlangan. Shu bilan birga, u o‘sha tizimning qadriyatlarini o‘zi ham qabul qilgan va ularga sherik bo‘lgan. Bu ikki tomonlama holat Simon de Bovuarning ayollik konstruksiyasi

haqidagi g’oyasi bilan uyg’un keladi [6; p. 800]: Deyzi o’ziga yuklatilgan rolni shunchalik chuqur singdirib olganki, bu rol bilan o’z haqiqiy istagini farqlay olmaydi.

Deyzining ovozi romandagi eng ta’sirli detal bo’lib, Nick Karroueyning so’zlari bilan aytganda, “pulga to’la” ovoz metaforasi orqali tasvirlanadi. Fitzgerald bu orqali butun bir sinfning ma’naviy bo’shlig’ini ifoda etadi. Bu ovoz jozibador va aldamchi, xuddi Amerika orzusining o’zi kabi: u ko’p narsaga va’da beradi, lekin hech narsani bermaydi.

Jordan Beyker esa butunlay boshqacha ko’rinadi: mustaqil, professional va o’z-o’ziga yetarli ayol. 1920-yillarda o’z tabaqasidagi ayollar uchun deyarli mumkin bo’lmagan kasb professional golf bilan shug’ullanuvchi Jordan o’sha davrning “Yangi ayoli” obrazini ifodalaydi. Batlarning gender performativligi nazariyasi [3; p. 17] nuqtai nazaridan Jordan erkaklar dominantlik qiladigan soha professional sportda munosib o’rin egallash uchun gender normalarini qayta belgilaydi.

Biroq Fitzgerald Jordan mustaqilligini ham tanqidiy ko’z bilan ko’rsatadi: uning yolg’onchiligi, beparvoligi va hissiy sovuqligi shuni anglatadiki, axloqiy poydevorlarga ega bo’lmagan mustaqillik haqiqiy ozodlik emas deb hisoblaydi. Bu Fitzgeraldning asosiy tanqidiy pozitsiyasini aks ettiradi: urushdan keyingi Amerika jamiyatida tashqi erkinlik va farovonlik ichki ma’naviy qashshoqlikni yashiradi.

Ikkala romandagi ayol obrazlarni solishtirganda, bir qator muhim o’xshashliklar va farqlar ko’zga tashlanadi. O’xshash tomondan, ikkala romanda ham ayol qahramonlar shunchaki individual shaxslar emas ular kattaroq g’oyalar va qadriyatlarining ramziga aylanadi. Katrin Barkli urush barbod qilgan dunyoda sevgi va go’zallikning mo’rt imkoniyatini ifodalasa, Deyzi Buchanan Amerika orzusining soxtaligini va yuqori tabaqaning axloqiy inqirozini ko’rsatadi.

Gender roli nuqtai nazaridan, ikkala romanda ham ayol qahramonlar ikkilanish holatida tasvirlanadi: ular bir vaqtning o’zida ham an’anaviy, ham o’zgaruvchan rollarni o’ynaydi. Katrin hamshira va sevgilisi; Deyzi turmush o’rtog’i va oshig’i; Jordan professional sportchi va ijtimoiy shaxs. Bu ikkilanish urush davri ayollarining haqiqiy ahvolini aks ettiradi: an’ana va yangilik, erkinlik va cheklov o’rtasida qolgan avlodning ziddiyati.

Ma’naviy ziddiyatlar masalasida ikkala romanda ham ayol qahramonlar o’ziga xos fojiaiy tuzoqqa tushgan. Katrin uchun bu tuzoq sevgining yagona ma’no manbaisi sifatida tanlanadi, biroq sevgi ham o’lim bilan tugaydi. Deyzi uchun tuzoq ijtimoiy tuzumning o’zida, ya’ni u tizim ichida tanlov qilishi mumkin, lekin tizimdan chiqish imkoni yo’q. Shunday qilib, ikkalasi ham o’z davrining ma’naviy ziddiyatlarini o’z tanasi va taqdiri orqali ifodalaydi.

Asosiy farq esa mualliflarning ayol obraziga munosabatida namoyon bo’ladi. Heminguey Katrinni ulug’laydi, uni fidoyilik va go’zallikning timsoli sifatida ko’rsatadi, biroq shu bilan birga uni yo’q qiladi, bu muallif niyatidagi paradoks. Fitzgerald esa ayol qahramonlarini na sentimental, na osongina hamdardlik uyg’otadigan tarzda tasvirlaydi: u ularning bir vaqtning o’zida ham jabrdiyda, ham aybdor ekanligini ko’rsatadi.

Gilbert va Gubarning patriarxal hikoyalarda ayol agentligini tahlil qilish tizimi [10; p. 719] nuqtai nazaridan, ikkala romandagi ayol qahramonlar bir vaqtning o’zida ramziy markaziy va hikoya jihatidan marginallashtirilgan. Ular romanning asosiy g’oyasini belgilaydi, biroq ular asosan erkak qahramon yoki erkak narrator orqali ko’rsatiladi. Bu holat «Yo’qotilgan avlod» adabiyotining mafkuraviy ufqlarini aks ettiradi.

Xulosa. Hemingueyning «Alvido, qurol!» va Fitzgeraldning «Buyuk Getsbi» romanlaridagi ayol obrazlarining qiyosiy tahlili shuni ko’rsatadiki, ikkala muallif urush yillaridagi ayollik identifikatsiyasini badiiy jihatdan chuqur va mafkuraviy jihatdan muhim tarzda ko’taradi, biroq har biri o’z estetik falsafasi va shaxsiy tajribasiga tayangan holda turlicha yondashadi.

Heminguey Katrin Barkli obrazi orqali urush davri ayolining fidoyilik va ma’naviy jasoratini ulug’laydi, biroq shu bilan birga bu fidoyilikning qanday fojiaiy oqibatga olib kelishini ham ko’rsatadi. Fitzgerald esa Deyzi va Jordan obrazlari orqali urushdan keyingi Amerika jamiyatida ayolning ijtimoiy tutqunligini, tashqi erkinlikning ichki bo’shliq bilan birga kelishini tanqidiy nigohi bilan tahlil qiladi.

Ikkala romanda ham ayol qahramonlar o’z davrining gender ziddiyatlarini va ma’naviy inqirozini shaxsiy taqdiri orqali ifodalaydi. Bu qahramonlarning qiymati shundaki, ular urush adabiyotiga nafaqat erkak tajribasi prizmasi orqali, balki ayollik identifikatsiyasining o’ziga xos murakkabligi orqali ham qarash imkonini beradi. Ularning ovozi cheklangan bo’lsa ham «Yo’qotilgan avlod» adabiyotining eng muhim va hali to’liq o’rganilmagan qatamlaridan birini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aldridge, J.W. After the Lost Generation: A Critical Study of the Writers of Two Wars. — New York: McGraw-Hill, 1951. — 312 p.
2. Baker, C. Ernest Hemingway: A Life Story. — New York: Scribner, 1969. — 697 p.
3. Butler, J. Gender Trouble: Feminism and the Subversion of Identity. — New York: Routledge, 1990. — 272 p.
4. Carpenter, F.I. American Literature and the Dream. — New York: Philosophical Library, 1955. — 235 p.
5. Caruth, C. Unclaimed Experience: Trauma, Narrative, and History. — Baltimore: Johns Hopkins University Press, 1996. — 154 p.
6. De Beauvoir, S. The Second Sex. — New York: Vintage Books, 1989. — 832 p.
7. Fetterley, J. The Resisting Reader: A Feminist Approach to American Fiction. — Bloomington: Indiana University Press, 1978. — 198 p.
8. Fitzgerald, F.S. The Great Gatsby. — New York: Scribner, 1925. — 180 p.
9. Freud, S. Beyond the Pleasure Principle. — New York: Norton, 1961. — 144 p.
10. Gilbert, S., Gubar, S. The Madwoman in the Attic. — New Haven: Yale University Press, 1979. — 719 p.
11. Hemingway, E. A Farewell to Arms. — New York: Scribner, 1929. — 332 p.

INGLIZ TILINI OLIY TA’LIMDA O’QITISH JARAYONIDA GENERATIV SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI QO’LLASHNING XORIJIY TAJRIBASI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO’LLARI

Nigmatova Nozimaxon Ulug’bek qizi

Farg’ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

comrehensible@gmail.com

+998949831705

ORCID: 0009-0002-0552-4068

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini o’qitish jarayoniga generativ sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo’yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda sun’iy intellektga asoslangan raqamli platformalar va generativ modellar yordamida til ko’nikmalarini rivojlantirish, individual ta’lim trayektoriyalarini shakllantirish hamda o’qitish samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, ushbu texnologiyalarni rivojlantirish istiqbollari, pedagogik shart-sharoitlari va metodik jihatlari ilmiy asosda ochib beriladi.